



## TARJIMANI PAYDO BO'LISHI

*Ko'yliboyeva Lyanora**Tarjima nazariyasi va amaliyoti**Yo'nalishi talabasi*

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada tarjima va tarjimonlik haqida, uning yaratish tarixi, kelib chiqishi, rivojlanish tarixi haqida so'z yuritilgan. Umuman tarjima va tarjimonlik tushunchasi, faoliyati, ilk nazariy bilimlar, global o'zgarishlar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** tarjima, tarjimonlik, rivojlanish, tarjimonlik faoliyati, tarjimashunoslik, antik davr.

Tarjima qadimgi tarixga ega bo'lib, turli tilda muloqot qiladigan xalqlar bilan o'zaro suhbat qilish va bir - birlarini tushunish uchun imkon yaratgan. Tarjimonlik tushunchasi qadimda paydo bo'lgan bo'lsada, tarjimonlik faoliyati XX asrga kelib alohida fan, tilshunoslik sifatida shakllangan. XX asrda I va II jahon urushlari global o'zgarish, fan va texnikaning rivojlanishi, xalqaro aloqalarning yanada jaddalashiga olib keldi. Bu sabablar tarjimashunoslikni rivojlanishiga turtki bo'ldi.

Tarjima nazariyasi borasida olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarini taxlil qilar ekanmiz, tarjima haqidagi ilk nazariy bilimlar birinchi qadimgi davrda miloddan avvalgi 3-2ming yilliklarda Shumer, Bobil, Misrda paydo bo'lgan. Tarjima va tarjimonlik davlatlararo munosabatlar, savdo – sotiq, diniy ta'limotlar tarqalishi zaruratidan yuzaga kelgan.

Antik davrda tarjimonlik Yunonistonda va Rimda rivojlandi. Rimliklar tarjimaga 2 xil yo'l bilan yondashishgan:

1. So'zma so'z tarjima.
2. Erkin tarjima.

So'zma so'z tarjima g'oyasini Liviy Andronik ilgari surgan. Manbalarda ko'rsatilishicha, Livik Andronik (Livius Andronicus) eramizdan avvalgi III asrda yashab o'tgan.U yunon bo'lib,Rimga asir qilib olib kelishgan. Keyinchalik ozod



qilishgan. Rimda lotin tilini o'rganib, katta asarlarni yunon tilidan lotin tiliga o'girgan. Liviy Andronik yunon "Oddesiya" asarini lotin tiliga so'zma so'z, she'riy tarzda tarjima qilgan. So'zma so'z tarjima qilishdan maqsad, asarni huddi asli kabi yetkazib berish bo'lган. Bu ancha mashaqqatni keltirib chiqargan, albatta. Madaniy tafovutlar, she'riy vazinni moslashtirish, epitetlar va tasvirlar tushunarli qilib soddalashtirilgan.

Keyinchalik mantiqiy ,ya'ni erkin tarjima, keng maydonga kirib keladi. Bu tushunchani Sitseron va Horats, rim yozuvchilari, so'zma so'z tarjimadan ko'ra mantiqiy tarjima yaxshiroq deb ilgari surishadi.

Mark Tulliy Sitseron (Cicero) Rim notiqi va faylasufidir. Mashhur lirik shoir.u so'zma so'z tarjimadan ko'ra mantiqiy, erkin tarjimani afzal ko'rgan. O'z asari "De optimo genere oratorum" ("Eng yaxshi notiqlar haqida") da "men tarjimada so'zları emas, balki g'oyalarni yetkazdim" deydi.

Keyinchalik Horats bu qarashlarni qo'llab – quvvatlaydi. Horats "tarjimon so'zma so'z tarjimaga qaram bo'lmasligi kerak, balki asarlarning ruhini yetkazishi lozim" deb yozadi.

O'rta asrlarda diniy, falsafaga bog'liq matnlar tarjimasi katta ro'l o'ynadi. Xususan, Xristian dunyosidagi Injil turli tillarga tarjima qilindi. Masalan, IV asrda "VULGATA" tarjimasi Jeronim tomonidan tarjima qilingan va bu tarjima butun Yevropada asosiy lotincha Injil sifatida ishlatilgan. Keyinchalik Martin Lyuterning nemis tilidagi Bibliya tarjimasi, Jon Uiklifning ingliz tilidagi Bibliya tarjimasi o'rta asrlarda boshlangan diniy tarjima an'anlarining davomidir.

Islom dunyosida Bog'dodda joylashgan "Bayt al – Hikma" tarjima dunyosida muhim markazlardan biri bo'ldi. Husayn ibn Ishoq, Ibn Muqaffa, Qust ibn Luqo kabi mashhur tarjimonlar, Aflatun, Galen, Arastu, Evklid kabi olimlarning asarlari tarjima qilinib, musulmon dunyosida ilm – fan rivojlantirilgan. Qur'on bevosita tarjima qilinmagan, ammo uning mazmunini tushuntiradigan tafsirlar turli tillarda yozilgan. Bundan tashqari falsafa, hadislar, fiqh va boshqa diniy, madaniy hayotni birlashtirdi.



Yangi davr (XV – XIX) asrlarda tarjima qadimgi bilimlarni tiklash uchun rivojlanishni boshladi va insoniyat tarixida alohida o’rin tutdi. Bu davrda diniy yokida ilmiy ehtiyojlar uchun emas, balki milliy adabiyot, madaniyat, xalq ma’rifati, fan taraqqiyoti uchun zarur jarayonga aylandi. Badiiy adabiyot yuksaldi, ilmiy kitoblar ko’p tillardan tarjima qilindi. Aristotel, Platon, Galen, Evklid, Ibn Sinoning asarlari tarjima qilinib, Yevropadagi universitetlarda asosiy darslik sifatida kiritildi. XIX asrga qadar Yevropada Ibn Sinoning “Tib qonunlari” ( Canon Medicinae) lotin tiliga qilingan tarjimasi shifokorlar uchun asosoy qo’llanma sifatida xizmat qilgan.

Astronomiyada Ptolemyning “Almagest”, Al- Xorazmiyning algebra haqidagi asarlarning tarjimasi yangi kashfiyotlarni yaratilishida asosiy tayanch bo’lib ishladi. Badiiy asarlar qatorida esa Shekspirning asarlari rus, fransuz, nemis, tillariga mahorat bilan tarjima qilingan va kitobsevar insonlarga asardagi ruh yetkazilgan. Sharqda Navoiy, Firdavsiy, Sa’diy kabi adiblarning asarlari turli xalq tillarida tarqaldi.

Hozirgi kunda tarjimaga bo’lgan talablarga ko’ra tarjimaning 3 turi keng tarqalgan. Har bir yunalish o’ziga hos kommunikativ bilimlarni, texnikani talab qiladi.

1. Ketma – ket
2. Sinxron
3. Vizual

Ketma – ket tarjima (Consecutive interpreting) – notiq o’z nutqini ma’lum bir pauza orqali bo’laklarga bo’lib gapiradi, tarjimon esa uning so’zlarini tinglovchi uchun tarjima qilib yetkazib beradi. Tarjimon tarjima qilish davomida yozib olishi, maxsus belgilardan foydalanishi mumkin. Bu tarjima turi diplomatik uchrashuvlar, press-konfrensiyalar, kichik yigilishlarda ishlataladi. Bu tarjima turi qadimdan mavjud bo’lgan bo’lib, Rim davrida elchilar ketma- ket tarjimadan foydalanishgan..

Sinxron tarjima (simultaneous interpreting) – tarjimon bir vaqtning o’zida, notiq gapirayotgan paytda eshitib tarjima qilishi hisoblanadi. Birinchi sinxron tarjima 1945 – yilda Nurbergi sud jarayonida qo’llangan.



Vizual tarjima (sight translation/visual interpreting) bu – kino, multifilm, serial, reklama ko’rish va eshitishga mo’ljallangan materiallar tarjimasi hisoblanadi. Tarjimon matnni ko’zi bilan o’qigan holda, bir vaqtning o’zida uni boshqa tilda og’zaki yetkazadi.

Bu usul yozma va og’zaki tarjima orasidagi ko’prik hisoblanadi. Visual tarjima qadimdan mavjud bo’lsada professional tarjimashunoslikda yonalish sifatida XXasrda shakllangan.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, tarjima rivojlanishda katta hissa qo’shgan va bilim almashishni taminlagan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Begmatov E. A. O’zbekiston nomlari ma'lumotiismlari ma’nosи (izoxlilug’at). 14 600 ismlarizoxi.2-nashri. — Toshkent: O’zbekiston milliy ensiklopediyasi (lug’at), 2007. — 608 r.
2. Nafasov T. Markayev O'tish: Saytda Harakatlanish, Qidiruv O'zbek etnoantroponimlari //Onomastika O'zbekiston onomastikasi. Sat. tez.II rep. ilmiy-amaliy.conf. - Qarshi, 1989. — P.136-140.
3. Superenskaya A.V. Atoqli otlar struktrasi fonologiya va morfonologiya.-M.: Nauka, 1969.
4. Yermolovich D.I. atoqli otlar tillar va madaniyatlar o’rtasida.-M.: R.Valent, 2001.
5. Komiljonovna K. I. Changes in the system of anthroponyms in the Uzbek language at the end of the 20th century-the beginning of the 21st century //Zien Journal of Social Sciences and Humanities. – 2022. – Т. 10. – С. 65-67.
6. Koziyeva I. K. THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF RUSSIAN ANTHROPOONYMY //МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ЯЗЫКА, ОБРАЗОВАНИЯ, ПЕРЕВОДА. – 2022. – Т. 3. – №. 3.